

HAYRATIY IJODIDA QO‘LLANGAN FONETIK BIRLIKLARNING POETIK FUNKSIYALARI

Abdullayeva Manzura Nasibullo qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktranti

Annotatsiya *Ushbu kichik tadqiqot ishida shoir Hayratiy ijodida qo‘llangan fonetik birliklarning poetik funksiyalari tahlil etilgan. Fonopoetik ifodalar orasida unli va undoshning aralash takrorlanishi orqali turli so‘z birliklari yuzaga kelganligini misollar orqali isbotlanadi.*

Kalit so‘zlar *Ritm, she‘r, konsonant, takrorlar, masnaviy, ruboiy, qit‘a, bayt, izofa, qofiya, bo‘g‘in, tovush, ohang, unli va undoshlar, qarshilantirish.*

KIRISH

Insoniyat tilida ilk bor tovushlar paydo bo‘lgan. Folklarning, ya‘ni xalq og‘zaki ijodining badiiy ibtidosi so‘z-tovush bilan uzviy bog‘liq. “Haqiqatan ham, ibtidoiy qo‘shiqdagi asosiy narsa ritmdir. Shuning uchun ham juda sodda qo‘shiqlarning so‘zlari ko‘pincha o‘sha tovush yoki so‘zni qayta-qayta takrorlashdan iboratdir”¹⁸. Qadimda Sharq poetikasining asosiy ob‘yekti bo‘lib kelgan qofiya ustida o‘tkazilgan tadqiqotlar, tahlillar lingvopoetika sohasini ma‘lum ma‘noda shakllantirdi, keyin esa rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Jumladan, A. Rustamovning “Qofiya nima?” risolasi¹⁹, I.Mirzayevning doktorlik dissertatsiyasiga²⁰, Sharq qofiya tizimiga doir qator maqola va risolalar asos bo‘lib xizmat qildi.

Tovushning bir satrida yoki butun matnda qayta-qayta takrorlanish hodisasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Yozuvchi va shoirlar bunga qancha kuchli e‘tibor berishsa, asarlari jarangdor-u ta‘sirchan holatga yetadi, ya‘ni takror tovushlar maqsadli tanlansa, so‘zlarning ma‘no-mohiyatiga uyg‘unlik bag‘ishlaydi. Tilshunoslikda bunday usul alliteratsiya deb ataladi. Tovushlar takrori badiiy matnda qadimdan musiqiylik, jarangdorlik va ifodaviylikda juda qo‘l kelgan. Ularning dastlabki ko‘rinishlarini V.M. Jirmunskiy turkiy bitiklarda – O‘rxun yodgorliklarida, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida uchratadi²¹. N. Rahmonov esa Kultegin bitiklarida alliteratsiyaning muhim badiiy vosita bo‘lganligini aytadi²².

USUL VA METODOLOGIYA

Aslida fonetik vositalarning har qanday turi she‘riy nutqqa aloqadordir. Bir xil harf-tovushlarning so‘z boshida kelishi, takrorlarda qatorlashuvi yoqimli ohang va jarang beradi. Xoh undosh bo‘lsin, xoh unli bo‘lsin bundan mustasno emas. Usul va vosita birlashib, she‘riy nutqda informativlik va ekspressivlikni ta‘minlaydi. Buning natijasida alliteratsiya

¹⁸Косвен М.О. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар. – Тошкент: Фан. 1960. 180-бет.

¹⁹Рустамов А. Қофия нима? – Тошкент: 1966. 21-бет.

²⁰Мирзаев И. К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Авторев. дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992.

²¹Жирмунский В.М.Тюркский героический эпос. –Л.: Наука, 1974. – С.663.

²²Рахмонов Н. Поэтика памятника кюль теги́на. АКД. – Т., 1984 – С.8.

she'riy nutqda alohida o'rin va ahamiyatga ega bo'ladi. "Adabiyotshunoslikda assonans deb yuritiladigan tilshunoslikdagi alliteratsiya unli va undoshlar takrori natijasida nutqda ifodalilik"²³ni ta'minlaydi. Shoir Hayratiy she'rlarida alliteratsiya u yoki bu turda qo'llanganini ko'ramiz. Birinchisi, ketma-ket takrorlanishi (misollar "Armug'on" to'plamidan olinmoqda)²⁴:

*Na qilsa qilur godiri barkamol,
Ki yo'qtir anga zarra zinnu zavol.* (46-bet)

yoki:

*Maskani ma'lufu ma'no manzili joyi aro
Garchi bo'lsun ankabut ul tori koridin judo.* (41-bet)

yoki:

*Basharti beg'araz bo'lsa birodar,
G'amu shodini ko'rmoqda barobar.* (136-bet)

yoki:

*Noqisu nokomu nomavzun so'zi,
Nuqsi aybidin xabarsizdir o'zi.* (38-bet)

Ikkinchisi, so'zlar oralatib takrorlash. Bunda alliteratsiya satr boshidan boshlanib, so'ng o'rtasida yana bosh tovush-harfi o'xshash so'zlar tizimlanadi:

Bilib do'zax azobin sho'rishu shiddat sharorini. (36-bet)

Beshinchisi, satr boshida va oxirida alliteratsiya hosil qilinadi:

Toq o'ldi oh naylayin hajringda tobu toqat. (36-bet)

Misralarda tovushni takrorlash, avvalo, g'azal, masnaviy muxammaslarga ohangdorlik va musiqiylik bag'ishlaydi. Ayni bir vaqtda lirik qahramonning kayfiyatini, ishqiy va ruhiy holatini yanada ravshanroq idrok ettiradi. Hayratiy baytlarida tovush uyg'unligini yaratishning asosan konsonant (undoshlar takrori) usulidan mohirona foydalanadi. Bu "Parallelizmlar va qaytariqlar bilan aloqador bo'lib, ushbu evfonik figuralarning asar estetik ta'sirchanligini oshirishda roli juda kattadir"²⁵.

Shoir g'azallarida garchi tovush uyg'unligini yaratuvchi vokal (unlilar takrori) turi deyarli uchramaydi. Biroq fonopoetik ifodalar orasida unli va undoshning aralash takrorlanishi orqali yuzaga kelgan namunalarini topiladi:

*Noz etib, nozik adoi nozaninlar noziki,
Oqibat hajrida onlarni pushaymon o'lmasin*²⁶.

Bu baytning birinchi satrida "n", "o", "z" tovushlari uyg'unlashtirilgan. Natijada evfonik holat-ohanglardan musiqaviylik kasb etgan. Shu kabi so'z va tovush o'yini uncha ko'p bo'lmasa ham, ular puxta va ta'sirchanligi bilan beixtiyor o'quvchi e'tiborini o'ziga tortadi. O'rnida qo'llangan alliteratsiya yoqimli ohangdorligi bilan o'quvchi diqqatini jalb qiladi. Shoir badiiy obrazlar yaratish uchun nainki so'zni, hatto tovushlarni tanlaydi, saralab, ishlatadi va o'ziga xos badiiy ifodalilikni yuzaga keltiradi. Yozuvchi V.M.Garshin

²³ Mahmudov N.M. O'qituvchi nutq madaniyati. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2007. 165-bet.

²⁴ Umrzoq Hayratiy. Armug'on. – Namangan: Iste'dod – ziyo-press. 2024.

²⁵ Степанова А.С. Аллитерация в карельских плачах // Фольклор, образ и поэтическое словесное контексте. - М: Наука, 1984. – С.127.

²⁶ Asrlar nidosi. Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti. 1982. 421-bet.

aytganidek: “Ko‘pincha birgina qudratli badiiy obraz qalbimizga ko‘p yillik hayotda olganimizdan ko‘proq narsa beradi. Shu vajdan so‘z san’atkorining mahoratiga juda yuqori talablar qo‘yiladi. Axir tuyg‘uga buyruq berib bo‘lmaydi. Shoir badiiy obrazga qon va jon beradi. Uning tuyg‘u va o‘ylari ehtirosli oqimi chinakam hayajoni tufayligina fonopoetik namuna paydo bo‘lishi mumkin²⁷.”

TADQIQOT NATIJALARI

Har qanday qalamkash kitobxon o‘zini tushunishini, o‘zi bilan o‘quvchi orasida ko‘rinmas aloqa rishtasi bo‘lishini nazarda tutib ijod qiladi. Yozganlarini idrok qilishi jarayonida she‘rini yoqimli ohangi, ta’sirchanligi kuchli bo‘lishi uchun bor mahoratini ayamaydi. Shundagina so‘zi qog‘ozda qolib ketmaydi. O‘qiganning qalbiga, ong-u shuuriga muhrlanishi oson kechadi.

1. Yuklamali va izofali so‘z orqali: ahli ahhob; anisu ag‘yor; arzi ahvolim.

*Qo‘ldin kelur jafoni qilding-u bo‘lding, ammo,
Bu o‘rtada anis-u ag‘yor, ey pari rux.* (18-bet)

Bahru bar; behadu benihoyat; bofahmu bofarosat; dildori dilnavoz; duoyi davlating; dilbari dilxohisan.

Zaifu zor; zoru zabun; zori zalil; zavola zinhor.

*Muqimi ko‘yi zilati az‘afu zor-u zalil ahqar,
Asiri nafsi rasvolig‘da chun be ishtiboh banda.* (10-bet)

Yuqoridagi baytlarda shoir yuklamali so‘zlar vositasida ma’no-mohiyatini kuchaytirishga erishgan. Ayni mahalda juft so‘zlar orasiga -u, -yu yuklamasini kiritgan holda olg‘a surgan fikrni yanada ta’sirchan ifodalab bergan.

Endi izofali so‘z qo‘llangan baytlarga murojaat etsak, quyidagi manzarani ko‘ramiz: mehru moh; misrayi mazmunidin; misli mardum; masti may; mahrami muruvvatdin; mulki malohat; mo‘miyoj marhamat.

*Damodam ravnaqi ortar yuzin mohi munavvardek,
Charokim pok tiynat, boadab, sohib farosatdur.* (11-bet)

Sabru sabot; salomi sonsiz; selobi sirishkim.

1. Xalq tilidagi bosh tovushi bir xil juft yoki qo‘shma so‘zlar noan’anaviy holatda, ya’ni bir-birining o‘rnini almashtirib qo‘llangan tarzda ham avvalgi ma’no-mohiyatini anglatish usuli bilan alliteratsiya yaratish:

Misol:

*Nedur qasding meni afgor etarsan,
Jafo-yu javr ila ozor etarsan.* (15-bet)

*Hush ila aql-u sabru qarorim
Shavqingda bo‘ldi toroj-u talon.* (14-bet)

2. Bosh tovush yoki bosh bo‘g‘ini bir xil so‘zlarni ketma-ket keltirib, misralarga ham jarangdorlik, ham ma’nodorlik bag‘ishlash Hayratiy she‘rlari matnida tez-tez takrorlanadi: diydor dildor; tajammul taxtidan; shiddat sharorini; ko‘p kor; duo davomat; darda darmon; soya solib; jismida jonim; so‘rmoq savob; nuqsiga nazar; nozanini nozpero.

Muhokama

²⁷ Гаршин В.М. Сочинение. – М., 1963. С. 419.

Yana bir holatni alohida ta'kidlash o'rinli. Alliteratsiyani badiiy vosita sanash asosi ham shu: tovush takrori emotsionalikni, muayyan his-tuyg'ular ifodasini kuchaytirishga xizmat qilmog'i shart bo'ladi. Mazkur shart bajarilmagan o'rinlarda tovush takrori badiiy vosita emas, balki tilda mavjud tovushlarning nutqdagi tabiiy takroridir²⁸. Hayratiyning san'atkorligi shundaki, u ana shu tayyor tovushlarni fonetik sathda badiiy vositaga aylantirib yuboraveradi. Bu esa shoirning yuksak uslubiy mahorat ustasi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ma'lumki, Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgach, ruslar bilan muomala qilmoq ehtiyoji ular tilini bilishni taqozo etardi. Ilm-ma'rifat sohibi bo'lgan shoir ilg'or ziyolilar qatori rus tilini o'rganmasligi aslo mumkin emas edi. Unga bu borada Ishoqxon to'ra Ibrat yordamini ayamagan²⁹. Ayni mahalda jadidlar yonida yurib, ma'rifatparvar sifatida ruslarning tiliga, ilmu maorifiga befarq qaramadi. Uning ijodiga ruscha so'zlarning kirib kelishi tasodifiy emas, aksincha tabiiy hol edi. Shuning uchun arab, fors tillari so'zlari qatori rus tili leksikasini ham qo'llash yo'lini tutdi. Hatto ulardan alliteratsiya hosil qilish bilan she'riga zamonaviylik ruhini olib kirdi.

Farosatda farido, ey malohatlik, fajoluysta,

Bu yerga xush kelibdursiz, fatonatlik, fajoluysta. (50-bet)

Rus qiziga bag'ishlangan ushbu g'azal shir-u shakar usulida bitilgan. Hayratiy arab, fors-tojik va rus tilini ham o'rganib o'zlashtirishga qiziqqani tufayli buning uddasidan to'la chiqa olgan. Baytlardagi bir necha tilga oid so'zlar omixtalanib, tovush va ma'nolar uyg'unligiga erishilgan. Eng kerakligi, lirik qahramonning kayfiyati, o'zbekona mulozamati alliteratsiya usulida ta'sirchan ifodalangan³⁰.

Shoir "f" bilan boshlanuvchi ikki so'zdan so'ng rus tilidagi *pojalyustaning* birinchi "p" qattiq undoshini ham ustalik bilan og'zaki nutqimizga moslashtirib "f" shaklida qo'llagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Косвен М.О. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар. – Тошкент: Фан. 1960. 180-бет.
2. Рустамов А. Қофия нима? – Тошкент: 1966. 21-бет.
3. Мирзаев И. К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Авторев. дис. ...д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992.
4. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. –Л.: Наука, 1974. – С.663.
5. Рахмонов Н. Поэтика памятника кюль тегина. АКД. – Т., 1984 – С.8.
6. Mahmudov N.M. O'qituvchi nutq madaniyati. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2007. 165-bet.
7. Umrzoq Hayratiy. Armug'on. – Namangan: Iste'dod – ziyo-press. 2024.
8. Степанова А.С. Аллитерация в карельских плачах // Фольклор, образ и поэтическое словов контексте. - М: Наука, 1984. – С.127.

²⁸ Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 26-bet.

²⁹ Sodiq Sayhun. Biz bilgan va bilmagan shoir Hayratiy. – Namangan: Iste'dod ziyo press. 2022. 60-bet.

³⁰ Yana shu kitob. 60-bet.

9. Asrlar nidosi. Toshkent. G'afur G'ulom nashriyoti. 1982. 421-bet.
10. Гаршин В.М. Сочинение. – М., 1963. С. 419.
11. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 26-bet.
12. Sodiq Sayhun. Biz bilgan va bilmagan shoir Hayratiiy. – Namangan: Iste'dod ziyo press. 2022. 60-bet.
13. ДОМУЛАДЖАНОВ, И. Х., ДЕХКАНОВА, Н. Н., & ЖАМОЛИДДИНОВА, Н. Б. К. ВОЗДЕЙСТВИЕ ЗАГРЯЗНЕНИЯ АТМОСФЕРЫ НА ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ.
14. Дехканова, Н. Н. (2021). ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ВЫСШИЕ УЧЕБНЫЕ ЗАВЕДЕНИЯ. Научный редактор, 29.
15. Исмаилов, М. Ю., & Дехканова, Н. Н. (2023). Получение и очистка нафтеновых кислот синтетическим методом. Universum: химия и биология, (2-1 (104)), 54-58.
16. Усмонов, А. Х., & Дехканова, Н. Н. ЗАКОНОМЕРНОСТИ АДСОРБЦИИ СЕРОВОДОРОДА, В ЦЕОЛИТЕ NaX. ЖАРЧЫСЫ, 279.
17. Дехканов, Т., Оринов, Ф., Рахманов, З., & Дехканова, Н. (2014). Морфология апудоцитов и некоторые вопросы патогенеза экспериментальных апудопатий. Журнал вестник врача, 1(3), 91-93.
18. Абдурахмонов, Э. Б., Дехканова, Н. Н., Рахматкариева, Ф. Г., Кохаров, М., & Жамолиддинова, Н. Б. К. (2022). КАЛОРИМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АДСОРБЦИИ МЕТИЛМЕРКАПТАНА В ЦЕОЛИТЕ NaX. Universum: химия и биология, (11-2 (101)), 22-28.
19. Дехканова, Н., Рахматкариева, Ф., & Жамолиддинова, Н. (2022). ТЕРМОДИНАМИКА АДСОРБЦИИ СЕРОВОДОРОДА НА ЦЕОЛИТЕ NaX. Farg'ona davlat universiteti, (3), 51-51.